

## **Использованная литература**

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 23 августа 2024 года «О мерах по подготовке к проведению IV Всемирной конференции по креативной экономике в городе Ташкенте» № ПП-301.
2. Закон Республики Узбекистан от 3 октября 10.2024 года «О креативной экономике» № ЗРУ-970.
3. Khodjalepesov P., Muratbeva S., Mambetsharipova G «Strategy of Uzbekistan for Reducing Poverty: Paths to Prosperity» Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences., Volume 35, September 2024 ISSN: 2795-7683
4. Khojalepesov P., Mirzabaeva U.Q., Muratbeva S.B. “Economic initiatives of the new uzbekistan: investments, partnerships, and development” American Journal of Technology and Applied Sciences ISSN (E): 2832-1766 Volume 24, May – 2024 www.americanjournal.org

## **TALABALARDA MUSTAQIL TA’LIM OLİSH KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

***Xolmuratov I., Eshanova T., Xo’jamuratova A.***

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta’lim olish ko’nikmalarini shakllantirishda nimalarga e’tibor berishlari zarurligi, qanday qilib mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish mumkin kabi savollarga atroficha javob berishga harakat qilindi.

**Kalit so’zlar:** Referat, konspekt, kafedra, o’quv ishchi dasturi, adabiyotlar, mutaxassis, muammoni aniqlash, tahlil qilish.

**Анотация:** В этой статье мы постарались дать подробный ответ на вопросы о том, на что следует обратить внимание при формировании у студентов навыков самостоятельного обучения, как выполнять самостоятельные образовательные задания.

**Ключевые слова:** доклад, концепция, кафедра, учебная рабочая программа, литература, специалист, определение проблемы, анализ.

**Annotation:** In this article, we have tried to give a comprehensive answer to the question of what students should pay attention to when forming independent learning skills, how to perform independent learning tasks, etc.

**The keywords are:** report, outline, department, curriculum, literature, specialist, problem identification and analysis. year

Talabalar uchun mustaqil ta’limni amalga oshirish bugungi kun ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri sifatida amalda joriy etilgan bo’lib, uni tashkil qilish jarayonlari va uslublari yildan-yilga takomillashtirib borilmoqda. Mustaqil ta’lim talabalarning qo’shimcha bilim va ma’lumotlarga ega bo’lishi, o’z ustida ishlash malakasi va mas’uliyatining shakllantirilishi, mazkur jarayonda hosil

qilingan turli malakalarning takomillashtirib borilishi natijasida talabalarning kelgusida etuk va malakali mutaxassislar bo‘lib etishishlari uchun asos bo‘lishi lozim bo‘lgan omillardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fanning muayyan qismlarini o‘rganish va o‘zlashtirishni talabalar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi mustaqil ta’limning mazmunini tashkil qilar ekan, uning tashkil etilishi, aniq maqsad va vazifalarning qo‘yilishi hamda yo‘nalishlarning aniqlanishi bu jarayonni amalga oshirilishini osonlashtiradi. Ayni vaqtida talabalarning mustaqil ta’limni amalga oshirish jarayonida e’tibor berilishi lozim bo‘lgan asosiy jihatlar, mavzularning asosiy xususiyatlari, ularning tadqiq qilinishi va o‘rganilish uslublari, mustaqil ishlarning tayyorlanish usullari va turlari, mavzularning mazmunidan kelib chiqqan holda mustaqil topshiriqlarni bajarish shakllarining xilma-xilligi talabalarning bu jarayonni to‘liq bajarish va maqsadga erishish imkoniyatlarini oshiradi. Talabalar berilgan mavzuga oid ma’lumotlarni yig‘ish, muammoni aniqlash, echimlarini qidirish, olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarini tanqidiy tahlil etish va ularni yangi vazifalarni hal etishda qo‘llasy olish kabi ko‘nikmalarini egallashadi. Shu bilan birgalikda mustaqil ta’limda mustaqil ishlash bilan raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash, tashkiliy, psixologik-pedagogik, o‘quv-uslubiy, axborot, moddiy-texnik ta’minotni o‘z ichiga oluvchi mustaqil ish infrakturasini yaratishadi.

### **Mustaqil ta’limning avzalliklari:**

-bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

-kerakli ma’lumotlarni izlab topishning qulay usul va vositalarini aniqlash;

-axborot manbalaridan samarali foydalanish;

-elektron darslik ma’lumotlar bankini yaratish;

-berilgan topshiriqning muhim echimini belgilash;

-ma’lumotlar bazasini tahlil etish;

-ish natijalari xulosasini tayyorlash va qayta ishlash;

-topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;

-ishlab chiqilgan echim, loyixani asoslash va mutaxassislar ishtirokida himoya qilish;

-pedagogik texnologiyalarni nazariy va amaliy egallash hamda sharoitlarini aniqlash;

-ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar hamkorligidagi faoliyatning aniqligi va oshkorraligidir.

Mustaqil ta’lim uchun ajratilgan mavzular muayyan bir mavzuning biror qismini yoritib bergen holda umumiylashtirish qilish va ayni vaqtida bilim olish uchun yo‘naltirilganligi katta ahamiyatga egadir. Chunki har bir mavzu yuzasidan ma’lum miqdorda ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari uchun soatlar ajratilgan bo‘lsada, talabalarning mazkur mavzular yuzasidan to‘liq va chuqur bilim olishlari uchun to‘g‘ri tashkil qilingan mustaqil ta’lim juda katta samara beradi. Bunda o‘tilayotgan har bir mavzuning aynan qaysi qismini mustaqil ta’lim uchun ajratish va uni qay tariqa tashkil qilish muayyan bir mavzuning talabalar tomonidan har

tomonlama va bat afsil holda o'rganish, xulosalar chiqarish, tasavvurga va bilimga ega bo'lishi uchun zamin bo'ladi.

Mutaxassislik fanning ishchi o'quv dasturida har ma'ruza va seminar darslari uchun hamda fan uchun umumiylashtirish, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, manbalar ro'yxatini beriladi. Mustaqil ta'limni tashkil qilish jarayonida shuni inobatga olish zarurki, talaba ma'ruza uchun belgilangan asosiy adabiyotlardan mustaqil ta'lim mavzusi uchun etarli ma'lumot ololmasligi mumkin. Chunki, mustaqil ta'lim mavzusi aynan bir muammoning mavzuga yoki aniq bir masalaga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu esa aynan shu masala uchun tegishli bo'lgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatini qo'shimcha tarzda talabalarga yetkazib berish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar va manbalar ro'yxatiga ega bo'lgan holda aniq bir mavzu yuzasidan ma'lumotlar yig'ish va uni tahlil qilish talabaga osonlik tug'diradi, uning vaqt taqsimotini to'g'ri tashkil qilishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida mustaqil ta'lim jarayonida olingen natijaning samarali bo'lishiga zamin yaratadi.

Mustaqil ta'lim yuzasidan topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar etishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu buyicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinlik darjasini semestrdan-semestriga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o'rgatib borish kerak bo'ladi. Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabanining akademik o'zlashtirish darjasini va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashhg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib kelish;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun materiallar toplash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning echimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandart masalalarni echish va ijodiy ishlash; - uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, fan(kurs) yuzasidan berilayotgan har bir mavzu o‘qituvchi tomonidan avvaldan atroficha o‘rganilishi va shundan so‘nggina talabalarga tavsiya qilinishi lozim. Bu jarayonda kafedraning albatta o‘rni muhim. Mustaqil ta’lim uchun belgilangan (tavsiya etilgan) mavzular ma’lum bir fanining turli sohalarini qamrab olar ekan, albatta ularni o‘rganishda o‘ziga xos tarzda yondashish talab etiladi. Mustaqil ta’lim mavzulari mazmunidan kelib chiqqan holda mustaqil ta’lim topshiriqlari bir necha ko‘rinishda (usulda) tayyorlanishi mumkin. Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilsa bo’ladi.

Talabalarga qaysi turdagи topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o‘ylab chiqilgan va ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarning auditoriya mashg‘ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to‘ldirishga xizmat qilishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirzakarimova O’.Uzoqov X.Saidova R. O‘zbek tili amaliyoti. T,O‘qituvchi.1993.
2. Xolmirzayeva S. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi (uslubiy qo‘llanma). ToshDAU nashr tahririysi, Toshkent, 2001.
3. Xolmirzayeva S. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi (uslubiy qo‘llanma). ToshDAU nashr tahririysi, Toshkent, 2003.
4. Xolmirzayeva S. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi kursining ishchi dasturi va uslubiy ko‘rsatmalar.ToshDAUnashr tahririysi, Toshkent, 2004.
5. Xolmirzayeva S. Davlat tilida ish yuritish (uslubiy qo‘llanma). ToshDAU nashr tahririysi, Toshkent, 2018.
6. Xolmirzayeva S. Nutq madaniyati (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). ToshDAU nashr tahririysi, Toshkent, 2019.
7. Normatova Sh., Abdurahmonova M.., O‘zbek tili (darslik) – Toshkent:JIDU, 2014 – 192 b
8. Fayzullayeva Sh., Azimova H., Usmonova G. O‘zbek tili – Toshkent:2012.
9. Yuldasheva Sh, Kabulova D, Sobirova M. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Nukus: Bilim, 2013
10. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: 2017,